

**“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika
markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati xodimlarining
Odob-ahloq qoidalari**

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” s qarori bilan tasdiqlangan “Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy nizomga” muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “O‘zTTBRM” MChJ) xodimlarining kasbiy odob-axloqining normalari, tamoyillari va xizmatdagi xulq-atvorining qoidalarini belgilaydi.

2. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlarining odob-axloq qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) “O‘zTTBRM” MChJda yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida “O‘zTTBRM” MChJga bo‘lgan hurmat va ishonchni oshirish, hamda xodimlarning axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlari o‘z vakolatlarini amalga oshirayotganda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlik hay’ati qarorlariga, “O‘zTTBRM” MChJning ichki idoraviy hujjatlariga, ushbu Odob-axloq qoidalariga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlari mazkur Qoidalarning talablariga rioya etishlari shart. Mazkur Qoidalarni bilish va ularga rioya qilish majburiyati egallab turgan lavozimi va bajaradigan ishining hususiyatidan qat’i nazar “O‘zTTBRM” MChJning barcha xodimlariga tadbiq etiladi.

4. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishi shart:

qonuniylik;

Vatanga sadoqat va xizmat vazifasiga fidoyilik, yuklangan funksional vazifalarini to‘liq bajarish, ijro intizomiga qat’iy rioya etish;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik; korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo'lish va qarshi kurashish;

xizmat sirini qat'iy saqlash;

mansab vakolatlarini suiste'mol qilmaslik;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik.

5. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar "O'zTTBRM" MChJda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

6. "O'zTTBRM" MChJ xodimlarining Odob-axloq qoidalariga rioya etishi ularning faoliyati hamda xizmatdagi axloqini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Ular tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi holati ularni kelgusida yuqori lavozimlarga tayinlash va rahbar kadrlar zahirasi shakllantirishda hisobga olinadi.

7. "O'zTTBRM" MChJ xodimlarida mazkur Qoidalar, kasbiy xulq-atvor yoki tartib-taomillar bilan bog'liq har qanday savollar paydo bo'lganida ular bevosita o'zining bo'lim boshliqlari, "O'zTTBRM" MChJ ning komplaens nazorati bo'yicha mutaxassisiga (55-505-00-19 ichki 1020) yoki 1199 ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkin.

2-bob. Asosiy atamalar va tushunchalar

8. Mazkur Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillari;

urug'-aymoqchilik – xodimning umumiy ajdodga ega bo'lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga sub'ektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo'lish tarzidagi shaxsiy manfaati;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik "O'zTTBRM" MChJ xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan xodimning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

kontragent – shartnomaviy munosabatlarga kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, mehnat munosabatlari bundan mustasno;

xodimlar – mehnat munosabatlariga kirishgan shaxslar (direktor, direktor o‘rinbosarlari, “O‘zTTBRM” MChJning xizmat, bo‘limlari rahbar va xodimlari va h.k.);

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – “O‘zTTBRM” MChJ xodimi tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari);

mahalliychilik – shaxsni faqatgina qarindoshligi (qarindoshini hamma bilishi yoki mashhurligi va uni jamoatchilik tan olganligi) va bunday shaxsning hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan organlardagi qarindoshlarining xizmat mavqei sababli lavozimga qo‘yiladigan malaka talablarini hisobga olmasdan ishga yollash, rotatsiya qilish hamda lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik) – o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga asossiz imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, biroq quyidagi vaziyatlar bilan cheklanib qolmaslik: yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, soha manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash;

homiylilik – yon bosish, qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklida soha xodimining yuqoriroq lavozimdagi xodim tomonidan himoya qilinishi;

favoritizm – xodim bir shaxs yoki bir guruh shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlaridan ustun qo‘yishi, shu bilan birga, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, lavozimi bo‘yicha ko‘tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat ta’tillari berish yoki sanatoriyalar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko‘rib chiqish navbatini, shuningdek, ish vaqti va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir.

3-bob. Kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidolari

9. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlari:

fuqarolarning jinsi, irqi, millati, fuqaroligi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei kamsitilishiga olib keluvchi ta’sir choralari va harakatlar (harakatsizlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;

turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, ijtimoiy barqarorlik, millatlar va konfessiyalararo

totuvlikka ko'maklashgan holda O'zbekiston Respublikasi, boshqa mamlakatlar xalqlarining urf-odatlarini va an'analarini hurmat qilishi;

egallab turgan lavozimi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, yuqori darajada ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lish, hamkasblariga va boshqa fuqarolarga hurmat, xushmuomalalik va xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishi;

halol, adolatli va kamtar bo'lishi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qarorlarni qabul qilishda qonuniylikni, adolatlilikni va shaffoflikni ta'minlashi;

davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini pasaytiradigan harakatlar (harakatsizlik)dan tiyilishi;

o'zining xatti-harakati va axloqi tufayli jamoatchilikning tanqidiga uchramaslik choralari ko'rishi, tanqid uchun ta'qibga yo'l qo'ymasligi, asosli va konstruktiv tanqiddan o'z faoliyatidagi kamchiliklar hamda nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida foydalanishi;

davlat organlari va tashkilotlari, davlat xizmatchilari va boshqa shaxslarga o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda shaxsiy masalalar yuzasidan ta'sir o'tkazmasligi;

o'z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olmasligi;

davlat mulkining but saqlanishini ta'minlashi, o'ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi; xizmat intizomiga qat'iy rioya qilishi, ish vaqtidan oqilona va samarali foydalanishi;

aholining davlat xizmatlari iste'molchisi sifatidagi talablariga muvofiq doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirib borish choralari ko'rishi; qonun bilan intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarlik va boshqa xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi;

kasb etikasi va ishchanlik uslubiga rioya etishi; ish joyida va (yoki) o'z xizmat majburiyatlarini bajarishda alkogol, giyohvand va boshqa taqiqlangan vositalarni iste'mol qilmasligi, shuningdek, ish joyida alkogol yoki giyohvand vositalar ta'sirida bo'lmasligi;

siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari manfaatlarini yo'lida xizmat mavqei va imkoniyatlaridan foydalanmasligi kerak.

10. "O'zTTBRM" MChJ xodimlari o'ziga bo'ysunuvchi xodimlardan ular mehnat vazifasini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishga da'vat etishi yoki majburlashiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Xizmatdagi xulq-atvorning asosiy tamoyillari va qoidolari

11. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlari o‘z xizmat faoliyati davomida quyidagilarga majbur:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga so‘zsiz rioya etishi;

xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy asosda oshirish;

Vazirlik hamda uning mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga biron-bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtai nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlari ifoda etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish;

xizmat safarlari davomida mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday turdagi sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik;

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar haqida, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o‘zining rahbariga zudlik bilan ma‘lum qilish;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan saqlanish;

davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan va xizmatga oid boshqa ma‘lumotlarning oshkor etilmasligini ta‘minlash yuzasidan barcha choralarni ko‘rish, ulardan qonunga zid ravishda foydalanmaslik;

axborotni tarqatish qoidalariga rioya qilish, internet jahon axborot tarmog‘i va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta‘minlashning belgilangan tartibiga amal qilish; biriktirilgan xizmat kompyuteri hamda elektron tashuvchilaridagi xizmatga oid ma‘lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta‘minlash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishining oldini olish choralari ko‘rish;

ijtimoiy tarmoqlarda axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan materiallarni joylashtirmaslik;

fuqarolar va hamkasblarining sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiruvchi ma‘lumotlar, tuhmat, ig‘vo va uydirmalarni tarqatmaslik;

mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qat‘iy rioya etish;

o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish;

jamoada sog‘lom ma‘naviy muhitni saqlash choralari ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish;

mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko‘maklashishi;

mehnat jamoasida hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatini obro‘sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish

12. “O‘zTTBRM” MChJda korrupsiyaning har qanday shaklda namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Korrupsiyaga “mutlaqo toqatsizlik” tamoyiliga tayangan holda “O‘zTTBRM” MChJning barcha xodimlariga pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya’ni pullar, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tavsifdagi xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik yoki shantaj qilish, va’da va pora berish (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishi qat’iy taqiqlanadi.

14. “O‘zTTBRM” MChJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan tamoyillar va talablar “O‘zTTBRM” MChJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida mustahkamlangan.

5-bob. O‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirishda “O‘zTTBRM” MChJning roli

15. “O‘zTTBRM” MChJ rahbarlari xodimlarning axloqiy xulq-atvorini shakllantirishda quyidagilarga majburlirlar:

o‘z mansab majburiyatlarini bajarishda mazkur Qoidalarda belgilangan axloq normalari va tamoyillarga so‘zsiz rioya qilinishida shaxsiy namuna ko‘rsatish;

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlari bilan o‘zaro munosabatlarda halol bo‘lish, ularning takliflari, g‘oyalari, talablari va shikoyatlariga o‘z vaqtida javob berish;

kamsitishga oid siyosatga yo‘l qo‘ymaslik, xodimlar mehnatiga haq to‘lash, xizmat bo‘yicha ko‘tarilishida teng huquq va imkoniyatlarga kafolat berish;

xodimlarga ularning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazmaydigan sharoitlarni yaratish;

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlari bilan uzoq muddatli hamkorlik qilish, maqsadlar umumiyligi, o‘zaro manfaatlarni hurmat qilish va hisobga olish, ijtimoiy sheriklik asosida o‘rnatish;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va hal qilish bo‘yicha o‘z vaqtida birlamchi choralarni ko‘rish;

korruptsiyaning oldini olish, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashishda faol qatnashadigan xodimlarni himoya qilish va rag‘batlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

vazifalar doirasini aniq belgilab olish, bo‘ysunuvchi xodimlar o‘rtasida ularning mansabi va kasbiy layoqatidan kelib chiqib taqsimlash, xodimlarning lavozim majburiyatlari doirasidan chetga chiqadigan vazifalarni bermaslik;

xodimni asossiz ravishda rag‘batlantirish va lavozim bo‘yicha ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, g‘ayrihuquqiy harakatlarga e‘tibor bermaslikka qarshi choralar ko‘rish (masalan, xodimlar tomonidan o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yetarli darajada choralar ko‘rilmasligi);

xodimlarni majburiy mehnatda, jumladan, shahar hududlarini obodonlashtirishda, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarida, metall qoldiqlarini yig‘ishda, shuningdek, boshqa mavsumiy tadbirlarda qatnashishlarining oldini olish (tegishli tashkilot hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat’iy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik tashkil etilgan hollar bundan mustasno);

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlarini samarali boshqarish, ular tomonidan sohaning mol-mulki va moliyaviy resurslari bilan ehtiyotkor va tejamkor munosabatda bo‘lishlarini kuzatish;

o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar tomonidan mazkur Qoidalar buzilishining oldini olishga bo‘lgan harakatsizligi uchun javob berish.

16. “O‘zTTBRM” MChJ rahbariyati, shuningdek, xizmat va bo‘lim boshliqlari o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar bilan munosabatlarda professional, halol va adolatli xulq-atvor namunasi bo‘lishi, qulay ish muhitini yaratishi hamda “O‘zTTBRM” MChJda ijobiy ma’naviy-psixologik muhitni shakllantirishga ko‘maklashishlari lozim.

17. “O‘zTTBRM” MChJ rahbariyati, shuningdek, xizmat va bo‘lim boshliqlari nepotizm, favoritizm, mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik va boshqa belgilarga ko‘ra xodimlarni yollash, rotatsiya qilish, lavozimga tayinlash, rag‘batlantirish yoki jazolash, shuningdek, ularga boshqacha sub’ektiv munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

6-bob. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlarining axloq normalari va qoidalarga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlari

18. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishda quyidagilarga majburlirlar:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga rioya qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) hamda “O‘zTTBRM” MChJ buyruq, farmoyishlari va ichki idoraviy hujjatlarini bajarish;

o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan va professional darajada bajarish;

Vazirlik va uning mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan farmoyishlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etish;

o'z faoliyatini qonunchilik va ichki hujjatlarda belgilangan kompetensiya doirasida amalga oshirishi;

o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ular ta'siridan o'z mustaqilligini saqlab qolish, fuqarolar huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;

xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilishi yoki ularni bajarishda biron-bir shaxsiy, mulkiy yoki boshqa manfaatlarga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlardan o'zini tiyish;

xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni doimiy asosda oshirish;

o'z vakolatlaridan davlat organlari, boshqa tashkilotlar yoki ular mansabdor shaxslari faoliyatiga noqonuniy aralashish maqsadida foydalanmaslik;

turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, ijtimoiy barqarorlik, millatlar va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashgan holda O'zbekiston Respublikasi, boshqa mamlakatlar xalqlarining urf-odatlarini va an'analarini hurmat qilish;

xodimlar tomonidan o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha uyg'otishi mumkin bo'lgan xulq-avtordan o'zini tiyish va o'z obro'si yoki vazirlikning nufuzini tahdid ostiga olishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldini olish;

egallab turgan lavozimi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, yuqori darajada ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lish, hamkasblariga, fuqarolarga va boshqa uchinchi shaxslarga hurmat, xushmuomalalik va xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish;

“O'zTTBRM” MChJ faoliyati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, belgilangan tartibda ishonchli ma'lumotlarni olishga ko'maklashish;

maxfiy axborotdan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish, shuningdek, mahfiy axborot va shaxsiy ma'lumotlarni nobud qilish, yo'qotish, o'zgartirish, oshkor qilish, nusxa olish, zarar yetkazish, ruxsatsiz foydalanish xavfidan tegishli darajada himoya qilinishini ta'minlash;

haqoratli, hurmatsiz va kamsituvchi xulq-atvorda bo'lishga, shuningdek, “O'zTTBRM” MChJ xodimlarining obro'siga putur yetkazadigan zo'ravonlik yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on mish-mishlarning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik;

o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda xizmat xonalari, davlat mulki, moddiy-texnik bazadan hamda "O'zTTBRM" MChJ ning mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish;

xatlar va xizmat xabarlarini yetkazish, olishning belgilangan qoidalariga rioya qilishi;

qonunbuzarlik sodir etishga undab o'ziga murojaat qilgan holatlar, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan va o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday qonunbuzarlik faktlari haqida o'z rahbari yoki boshqa vakolatli shaxslarni zudlik bilan xabardor qilish;

"O'zTTBRM" MChJning yangi va boshqa xodimlariga zarur amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, hamkasblarini ularning kasbiy intilishlarida qo'llab-quvvatlash;

mehnat intizomiga rioya qilish va ish vaqtidan samarali foydalanish;

ish joyida va (yoki) o'z xizmat majburiyatlarini bajarishda alkogol, giyohvand va boshqa taqiqlangan vositalarni iste'mol qilishdan, shuningdek, ish joyida alkogol yoki giyohvand vositalar ta'sirida bo'lish holatidan voz kechish;

hamkasblari va boshqa shaxslardan tanqidni to'g'ri qabul qilish, shuningdek, xolis e'tirozlar bo'lganda xulq-atvor modelini o'zgartirish.

19. Siyosiy, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy va boshqa sub'ektiv sabablar xodim tomonidan mazkur Qoidalar talablarini buzishga asos bo'lib hisoblanmaydi.

20. Mehnat shartlari va xizmat turidan kelib chiqib, xodimning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishida tashqi ko'rinishi fuqarolar tomonidan ommaviy hokimiyatni hurmat qilishga ko'maklashishi, umumqabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi va rasmiylik, kamtarlik va intizomlilikni alohida ta'kidlashi lozim.

21. Xodimlar ishdan bo'sh vaqtlarida umumqabul qilingan axloq normalariga rioya qilishlari va axloqqa zid keluvchi xulq-atvordan o'zlarini tiyishlari kerak.

7-bob. Sovg'alar va ish muomalasida mehmondo'stlik belgilari

22. "O'zTTBRM" MChJ xodimlariga xodim o'z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki ish muomalasida mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag'batlantirish vositalarini, naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish ta'qiqlanadi.

23. "O'zTTBRM" MChJ xodimlari tomonidan boshqa xodimlarga ularning shaxsiy bayramlari (tug'ilgan kun, farzandining tug'ilishi, turmush qurish, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni)da berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan sovg'alar xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

24. Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

sovg'alar "O'zTTBRM" MChJning kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi;

sovg'a berish tabrik nutqi bilan birga bo'lishi kerak, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig'implarni hisobga olgan holda) 1 (bir) million so'mdan ortiq bo'lmagan miqdordan oshmasligi;

“O‘zTTBRM” MChJning bitta xodimi boshqa xodimga sovg'a uchun sarflaydigan xarajat summasi, har bir holatda 1 (bir) bazaviy hisoblash miqdordan oshmasligi kerak.

25. Sovg'alarni qabul qilishning qonuniyligida har qanday shubhalar paydo bo'lganda xodim “O‘zTTBRM” MChJning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati qoidolari bilan qayta tanishib chiqishi va “O‘zTTBRM” MChJning komplaens nazorati bo'yicha mutaxassisiga maslahat so'rab murojaat qilishi maqsadga muvofiq.

26. Sovg'alar va ish muomalasida mehmondo'stlik belgilarini olish va berish Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati bilan tartibga solinadi.

8-bob. Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi

27. Mazkur Qoidalar, shuningdek, umumqabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etilishi masalalarini ko'rib chiqish uchun “O‘zTTBRM” MChJda Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tashkil etiladi.

28. Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi qabul qilingan Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi to'g'risidagi nizomlar, mazkur Qoidalar hamda “O‘zTTBRM” MChJning buyruqlari asosida faoliyat olib boradi.

29. Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari “O‘zTTBRM” MChJ xodimlarining odob-axloq qoidolari hamda “O‘zTTBRM” MChJ xodimlarining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomning buzilishi bilan bog'liq masalalarni:

“O‘zTTBRM” MChJ rahbarining ko'rsatmasi bo'yicha;

xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra;

o'z tashabbusi bilan;

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlaridan, shuningdek, “O‘zTTBRM” MChJ bilan aloqa kanallari orqali kelib tushgan axborot asosida ko'rib chiqadi.

30. “O‘zTTBRM” MChJ xodimlari tomonidan mazkur Qoidalar buzilganda yoki buzilishida shubha paydo bo'lganida ushbu vaziyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha vakolat (funksiya)larni mas'ul xodimlar o'rtasida taqsimlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

“O‘zTTBRM” MChJ xodimlarining belgilangan tartibda hal qilinmagan manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda, bu vaziyat Odob-axloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik yoki korruptsiyaviy xavf-xatar mavjud bo'lgan vaziyatlar aniqlanganda, ushbu holat yuzasidan tekshiruv o'tkazilib, natijasi bo'yicha tayyorlangan ma'lumotnoma "O'zTTBRM" MChJ rahbariga kiritadi;

sovg'alar va ish muomalasida mehmondo'stlik belgilariga oid qoidalar buzilganida, ushbu vaziyatlar tegishliligi bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mazkur badda nazarda tutilmagan boshqa hollarda ushbu Qoidalar talablarining buzilishi Odob-axloq, mehnat nizosi va korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

9-bob. Odob-axloq qoidalariga oid huquqbuzarliklar haqida xabarlar

31. "O'zTTBRM" MChJ xodimlari harakatlarining qonuniyligi va (yoki) axloqiyligida shubha paydo bo'lganda, odob-axloq qoidalarining buzilishida ehtimol tutilgan yoki ularni sodir etilganligi fakti bo'yicha asosli gumoni bo'lganda, bu haqda mavjud aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin.

32. "O'zTTBRM" MChJ rahbari o'z vakolati va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik haqida ishonchli axborot bergan shaxsning sir bo'lib qolishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

33. "O'zTTBRM" MChJ rahbari o'z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladi, qasos olish, jumladan, ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, shubhali xulq-atvori yoki mazkur Qoidalaridagi odob-axloq normalari va tamoyillarini buzish ehtimoli haqida ixtiyoriy xabar bergan xodimlarni ta'qib qilishga yo'l qo'yilmasligiga kafolat beradi.

34. Mazkur Qoidalarining buzilishi haqidagi xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali berilishi mumkin:

- "O'zTTBRM" MChJ xodimlari – "O'zTTBRM" MChJ Kadrlar bo'limi, Komplaens nazorati bo'yicha mutaxassisga hamda Ijro intizomi va tashkiliy nazorat bo'limiga;
- jismoniy va yuridik shaxslar – "O'zTTBRM" MChJning JYuShMBIB (55) 505-00-19 (1040) telefon raqamiga hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlariga.

35. "O'zTTBRM" MChJning aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar mas'ul bo'linma tomonidan qonunchilik, "O'zTTBRM" MChJ hujjatlari hamda tegishli korxonaning ichki hujjatlariga muvofiq xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

36. Ko'rib chiqishga, shuningdek, anonim tarzda yo'llangan xabarlar ham qabul qilinadi. Anonim bo'lib qolishni istagan arz qiluvchi bunday holda quyidagilarga rozi bo'ladi:

- kelib tushgan xabarga javob berish uchun u bilan bog'lanishning imkoni bo'lmaydi;
- zarur qo'shimcha ma'lumot olish imkoni bo'lmaganligi tufayli xabarni to'liq va har tomonlama tekshira olmaydi.

37. “O‘zTTBRM” MChJ xodimi tomonidan bila turib yolg‘on ma‘lumot berilishi mazkur Qoidalarining buzilishi va g‘ayriaxloqiy xulq-atvor namunasi sifatida qaraladi, bunday shaxs esa qonunchilik hamda ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

38. Aloqa kanallarining ishi va olingan xabarlarni ko‘rib chiqish/qayta ishlash tartibi to‘g‘risidagi batafsil ma‘lumot korrupsiyaviy harakatlar haqida xabar berish uchun aloqa kanallaridan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamentida hamda shu kabi ichki hujjatlarda aks ettiriladi.

10-bob. Mazkur qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

39. Xodimlar tomonidan mazkur Qoidalariga rioya qilish muhim kasbiy kompetensiya sifatida qaraladi va boshqa mezonlar qatorida lavozimini ko‘tarish, faoliyatini baholash va h.k.larga xizmat qiladi.

40. Adliya organlari va muassasalari xodimining odob-axloq standartlariga sodiqlik attestatsiyada, yuqori turuvchi va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini tayyorlashda inobatga olinadi.

41. “O‘zTTBRM” MChJ xodimi tomonidan mazkur Qoidalarining buzilishi uni qonunchilikda va “O‘zTTBRM” MChJ hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo‘lishi mumkin.

11-bob. Qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish kiritish tartibi

42. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo‘llash amaliyoti, tamoyillar va talablarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganda mazkur Qoidalar “O‘zTTBRM” MChJ buyrug‘iga asosan qayta ko‘rib chiqilishi va yangilanishi lozim.